

Andijon davlat tibbiyot instituti, bolalar kasalliklari propedevtikasi kafedrası



**Bolalar kasalliklari propedevtikasi
kafedrası mudiri dotsent**

**ARZIBEKOV ABDUQODIR
G`ULOMOVICH**

Tel: +99890-573-18-12

e-mail: arzibekov1955@mail.ru

BOLALAR KASALLIKLARI PROPEDEVTIKASI KAFEDRASINI TARIXI VA FAOLIYATI

«Bolalar kasalliklari» kafedrası 1959 – yili tashkil qilinib, kafedra mudiri lavozimiga tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent Ilyasov Anvar Ilyasovich saylangan. Kafedra assistenti lavozimiga Chukanin N. N., Etsina E.S., Bezrukova Z.A., Skirinevskaya A.I lar qabul qilingan.

1966 – yili institutimizda «Pediatriya» fakultetini ochilishi munosabati bilan kafedra davolash va pediatriya fakultetlarining «Bolalar kasalliklari» kafedrası maqomini olgan. Bu kafedraga kafedra mudiri etib N.N. Chukanin saylangan va jamoaga Mamadjanova D.M., Arikbaev U.A., Sulaymonov Z.S., Valieva Sh.I., Iminova S.A. assistentlar bo‘lib qo‘shilgan.

1979 – yil 25-avgustdagi institut rektorining davolash fakultetida «Pediatriya» kafedrasini tashkil qilish to‘g‘risidagi buyrug‘iga asosan «Bolalar kasalliklari» kafedrasidan davolash fakultetini «Pediatriya» kafedrası ajralib chiqqan va Andijon shahar 2-bolalar klinik shifoxonasida joylashgan. Yangi ochilgan kafedraning kafedra mudirligi lavozimiga tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent Mamadjanova D.M. saylangan va 2000 yilgacha shu lavozimda ishlagan.

2000-2005 yillari kafedra mudiri lavozimida dotsent A.G. Arzibekov ishlagan.

O‘tgan yillar davomida Shermatova M. R., Alieva M.M., X. S. Qodirov, U. Abduxakimov, G.S. Axmadjanova, L.Ya. Grigoryans, A.Sh. Arziqulov, O.

Mo‘minov, B.S. Qayumov, M.Abdullaeva, S. Saloev, M.A.Umarova, D.A. Abdullaeva, B.T. Abduxaliqova, F.X. Bakirova, X.F.Maxsudova, L.S.Salimgarieva, Sh.R. Iskandarova, K.S. Inamov, G.K. Maxpieva, G.Z.Qosimova, kafedra assistenti, dotsenti lavozimlarida ishlashdi va ishlashmoqda.

Shulardan hozirda O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, t.f.d. professor N.N.Chukanin Rossiya fanlari akademiyasiga qarashli «Bolalar salomatligi ilmiy markazida» bo‘lim mudiri lavozimida ishlagan, t.f.d., L.Ya.Grigoryans Moskva shahrida «Gematologiya va qon quyish» ilmiy tadqiqot institutida katta ilmiy xodim, t.f.d. professor A.Sh.Arziqulov hozirda pediatriya fakultetining dekani.

2006-yili kafedralarning qo‘shilishi munosabati bilan, kafedra «Bolalar kasalliklari propedevtikasi va pediatriya kafedrasini, VMOF neonatologiya kursi» nomini olgan. Yangi tashkil qilingan kafedra mudiri etib professor A.Sh.Arziqulov saylangan. Shu kafedra tarkibiga t.f.d. X.T.Xudoyberdieva, dotsentlar: A.G.Arzibekov, E.M.Yaxudaev, M.B.Ibragimov, assistentlar: M.M.Jalalova, O.A.Karimova, I.A.Noralievlar qo‘shilishdi.

2010-yildan VMOF neonatologiya kafedrasini alohida ajraldi va kafedra «Bolalar kasalliklari propedevtikasi va pediatriya» kafedrasini deb nomlandi.

Kafedra mudiri etib dotsent A.G.Arzibekov tayinlandi.

2011-yilda kafedraga magistratura bitiruvchisi G.Maxpiev ishga olindi.

2014-yilda Hospital pediatriya kafedrasidan G.Z.Qosimova ishga o‘tdi.

2016-yilda Vrachlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash fakultetining pediatriya kafedrasidan Z.B.Xafizova ishga o‘tdi.

2017-yil sentabr oyidan kafedrada F.T.Abdunazarov, U.X.Raxmonova, M.K.Maksumov lar ish faoliyatini boshladilar.

Magistratura bitiruvchilari X.E.Turaqulova, M. To‘xtasinovalar stajyor bo‘lib sentyabr oyi 2017-yil ish faoliyatini boshladilar.



Kafedra a'zolari **KAFEDRANING ILMIY YO'NALISHLARI**

Kafedrada bir necha ilmiy yo'nalishlar bo'yicha ishlar olib borilmoqda:

1. Metabolik sindromda jigar va buyrakdagi oksidlanish jarayonlariga endotelialy disfunktsiyasining ta'siri va uni tiklash yo'llari.
2. Kichik maktab yoshidagi bolalarda adaptatsiya jarayonlarining kechishi xususiyatlari.


Yuqoridagi yo'nalishlar bo'yicha Qosimova G.Z., Maxsumov M.lar ilmiy ishlarini olib borishmoqda.

Olingan ma'lumotlar har yili ilmiy maqola, tezis sifatida Respublikamizning markaziy, mahalliy, hamda MDH matbuotlarida chop etilib turilmoqda.

Kafedrada iqtidorli talabalar maktabi mavjud bo'lib dotsent Z.B.Xafizova va assistent G.Z.Qosimova rahbarligida ilmiy tadqiqot va o'quv-tadqiqot ishlarini olib borishadi.

Kafedrada elektron kutubxona tashkil qilingan bo'lib, unda fan bo'yicha asosiy va qo'shimcha adabiyotlarning, monografiyalar, o'quv-uslubiy qo'llanmalarining elektron variantlari bor.

Kafedrada yaratilgan o'quv qo'llanmalar



Iqtidorli talabalar maktabi



O'QITUVCHILAR NAZORATI OSTIDA TALABALAR AMALIY KO'NIKMALARNI O'ZLASHTIRMOQDA



Kafedrada o'quv jarayoni uchun 30 ta o'quv filmlari mavjud.

Talabalar amaliy mashg'ulotda o'quv videofilm ko'rmoqda



**TALABALAR YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI
O'ZLASHTIRMOQDA**



KAFEDRADA MA`NAVIY-MA`RIFIY ISHLAR QUIYIDAGI YO`NALISHLARDA OLIB BORILMOQDA

- “Ustoz – shogird” tizimi doirasida;
- Kurslarda murabbiylik faoliyati;
- Talabalar uylarida o`tkaziladigan uchrashuv va tadbirlar;
- Respublikamiz hayotida sodir bo`layotgan muhim voqealarni (Prezident asarlari, nutqlari, OM sessiyalari materiallari va boshqa) talabalarga tushintirish maqsadida o`tkaziladigan tadbirlar;
- Institut miqyosida o`tkaziladigan ma`naviy-ma`rifiy tadbirlarda, targ`ibot va tashviqot ishlarida faol ishtirok etish.